



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 158 sahifa,  
2-sentyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....                                                                                            | 14  |
| <a href="#">Ibragimova Gulsanam Nematovna</a>                                                                                                                                 |     |
| Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri .....                                                            | 22  |
| <a href="#">Abduyev Sheroz</a>                                                                                                                                                |     |
| Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali<br>o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish..... | 25  |
| <a href="#">Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li</a>                                                                                                                          |     |
| Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili .....                                                                                      | 30  |
| <a href="#">Bobojonova Zarina Rashidovna</a>                                                                                                                                  |     |
| Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish .....                                                                                 | 34  |
| <a href="#">Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna</a>                                                                                                                                |     |
| Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli:<br>xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi .....                                                     | 38  |
| <a href="#">Jumayeva Sadbarg Mirolimovna</a>                                                                                                                                  |     |
| O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning<br>o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili .....              | 42  |
| <a href="#">Karimova Moxichehra Rixsibayevna</a>                                                                                                                              |     |
| Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi .....                                                                                                 | 46  |
| <a href="#">Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi</a>                                                                                                                             |     |
| TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish .....                                                                                    | 50  |
| <a href="#">Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi</a>                                                                                                                         |     |
| Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....                                                                                                       | 53  |
| <a href="#">Raximberganova Munajat Muzaffar qizi</a>                                                                                                                          |     |
| Structure of Social Conflict and Stages of its Development .....                                                                                                              | 57  |
| <a href="#">Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna</a>                                                                                                                             |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash<br>va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....                                              | 60  |
| <a href="#">Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi</a>                                                                                                                         |     |
| Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....                                                                                                       | 64  |
| <a href="#">Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</a>                                                                                                                                  |     |
| Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda<br>kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati .....                      | 69  |
| <a href="#">Avazov G'oyibnazar Berdiyevich</a>                                                                                                                                |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali<br>kommunikativ salohiyatini shakllantirish .....                                       | 72  |
| <a href="#">Baratova Yulduz Asadullayevna</a>                                                                                                                                 |     |
| Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati .....                                                                                                 | 76  |
| <a href="#">Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi</a>                                                                                           |     |
| Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish .....                                                            | 80  |
| <a href="#">Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi</a>                                                                                                                           |     |
| Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....                                                                                    | 84  |
| <a href="#">O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</a>                                                                                              |     |
| IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....                                                                        | 90  |
| <a href="#">Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna</a>                                                                                                                                 |     |
| Improving the System of Human Resource Capacity Management<br>in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan .....                                                | 98  |
| <a href="#">Imomov I., Umirova D.</a>                                                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va<br>tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....                                              | 104 |
| <a href="#">Iskandarova Munisa Bahodir qizi</a>                                                                                                                               |     |
| Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish .....                                                                                                    | 107 |
| <a href="#">Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna</a>                                                                                                                             |     |





|                                                                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari .....                                                  | 110 |
| <i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>                                                                                                    |     |
| Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....                                                     | 113 |
| <i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>                                                                                                                    |     |
| Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish .....                                                    | 117 |
| <i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>                                                                                |     |
| Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari ..... | 121 |
| <i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>                                                                                                                   |     |
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi .....              | 126 |
| <i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>                                                                                                                |     |
| Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari .....                                                                       | 131 |
| <i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>                                                                                                                   |     |
| "Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari .....                | 139 |
| <i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>                                                                                                                       |     |
| Improving High Jump Techniques .....                                                                                                                    | 143 |
| <i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>                                                                                                                  |     |
| Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....                                                                   | 146 |
| <i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>                                                                                                                  |     |
| Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....                                                                                | 149 |
| <i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>                                                                                                                 |     |
| Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта .....                 | 152 |
| <i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>                                                                                                               |     |

# IIV LITSEY O'QUVCHILARINING LIDERLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna

Qori Niyoziy nomidagi

Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada IIV akademik litseylari o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 15–18 yoshli o'smirlarning psixologik rivojlanish bosqichi, shaxsiy identifikatsiya, mustaqillikka intilish, motivatsiya, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi omillarning yetakchilik fazilatlarini shakllanishiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va psixologik mexanizmlari – o'z-o'zini baholashni oshirish, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, jamoada hamkorlik va sog'lom raqobatni tashkil etish, rolli o'yinlar, debatlar hamda motivatsion treninglar orqali shaxsiy o'sishni qo'llab-quvvatlash kabi yondashuvlar asoslab berilgan. Maqolada ijobiy psixologik muhit yaratishning ahamiyati hamda gender xususiyatlarining liderlik salohiyatiga ta'siri tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** liderlik kompetensiyasi, psixologik xususiyatlar, o'smirlilik davri, motivatsiya, o'z-o'zini baholash, emotsional barqarorlik, kommunikativ ko'nikmalar, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoaviy liderlik, psixologik iqlim, motivatsion trening, pedagogik yondashuvlar.

**Abstract:** This article analyzes the psychological characteristics of leadership competency development among students of the Ministry of Internal Affairs academic lyceums. The study examines the impact of adolescent factors (ages 15–18) – personal identity, striving for independence, motivation, emotional stability, and social adaptability – on the formation of leadership qualities. The paper substantiates pedagogical and psychological mechanisms for developing leadership competencies, including enhancing self-esteem, fostering communication skills, organizing teamwork and healthy competition, and applying role-playing activities, debates, and motivational training to support personal growth. The importance of creating a positive psychological climate and the influence of gender differences on leadership potential are also discussed.

**Key words:** leadership competencies, psychological characteristics, adolescence, motivation, self-esteem, emotional stability, communication skills, social adaptability, team leadership, psychological climate, motivational training, pedagogical approaches.

**Аннотация:** В статье анализируются психологические особенности развития лидерских компетенций у учащихся академических лицеев МВД. В исследовании рассмотрено влияние факторов подросткового возраста (15–18 лет) – личностной идентичности, стремления к самостоятельности, мотивации, эмоциональной устойчивости и социальной адаптивности – на формирование лидерских качеств. Обоснованы педагогические и психологические механизмы развития лидерских компетенций: повышение самооценки, развитие коммуникативных навыков, организация сотрудничества и здоровой конкуренции, проведение ролевых игр, дебатов и мотивационных тренингов для поддержки личностного роста. Также проанализировано значение создания позитивного психологического климата и влияние гендерных особенностей на лидерский потенциал.

**Ключевые слова:** лидерские компетенции, психологические особенности, подростковый возраст, мотивация, самооценка, эмоциональная устойчивость, коммуникативные навыки, социальная адаптивность, командное лидерство, психологический климат, мотивационные тренинги, педагогические подходы.

## KIRISH

IIV akademik litsey o'quvchilari asosan 15–18 yoshdagi o'smirlilik va ilk yosh davriga to'g'ri keladi. Bu yosh bosqichi psixologik rivojlanishning murakkab va o'ziga xos davri sifatida tavsiflanadi. O'smirlilik davri shaxsning o'zini anglash, mustaqillikka intilish va ijtimoiy o'rni bilan bog'liq muhim o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Aynan shu davrda yoshlarning shaxsiy identifikatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi, tashabbuskorlik va liderlik salohiyatini rivojlantirishga asos bo'luvchi psixologik jarayonlar faol ravishda shakllanadi.



Ushbu yoshda o'quvchilarda emotsional barqarorlik hali to'liq rivojlanmagan bo'lishi mumkin, shuning uchun ular stress, konflikt yoki noaniq vaziyatlarda hissiy reaksiyalarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuningdek, o'smirlik davrida guruhiiy muloqot va ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilar jamoa ichida o'z rolini aniqlashga, boshqalar bilan samarali muloqot qilishga harakat qiladilar.

O'quvchilarning bu yoshdagi psixologik xususiyatlari liderlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida bevosita rol o'ynaydi. Ya'ni, tashabbus ko'rsatish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, qaror qabul qilish kabi liderlik fazilatlari aynan o'smirlik davrida rivojlanadi. Shu sababli IIV akademik litseyda ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularga mos pedagogik va psixologik yondashuvlarni qo'llash muhim hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

N.N. Djamilova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yoshlarda tashabbuskorlikni rivojlantirish liderlik qobiliyati bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, liderlik sifatleri quyidagi psixologik ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi:

- intizomlilik va mustaqillik – o'zini o'zi tashkillashtirish, javobgarlikni his qilish hamda faoliyatni mustaqil olib borish;
- ishchanlik va tashabbuskorlik – maqsad sari intilish, yangi g'oya va takliflarni ilgari surish;
- maqsadga yo'naltirilganlik va mas'uliyatlilik – hayotiy pozitsiyani aniq belgilash, vazifalarni o'z vaqtida bajarish;
- mehnatsevarlik va muloqotchanlik – faoliyatga ijobiy munosabatda bo'lish, hamkorlikka tayyorlik;
- shuningdek, olijanoblik, qat'iylik va tolerantlik – insonparvarlik, qaror qabul qilishda izchillik va boshqalarga hurmatda namoyon bo'ladi <sup>[3]</sup>.

Ushbu sifatlar IIV litsey o'quvchilarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning muhim psixologik asosini tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 15–18 yoshdagi o'quvchilar o'smirlikning murakkab va o'ziga xos davrida bo'lib, bu yoshda shaxsiy identifikatsiya, mustaqillikka intilish va guruhdagi o'rinni aniqlash kabi psixologik jarayonlar faol ravishda shakllanadi. Bu jarayonlar liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ya'ni:

1. **Shaxsiy identifikatsiya va o'zini anglash.** O'smirlik davrida o'quvchilar "Men kimman?" degan savolga javob izlaydilar. Erik Eriksonning nazariyasiga ko'ra <sup>[5]</sup>, bu davrda muvaffaqiyatli identifikatsiya shakllanishi muhimdir. Shaxsiy identifikatsiya shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va liderlik fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi <sup>[4]</sup>.

*Izoh:*

- Identifikatsiya – bu o'zini kim bilib his qilish, o'z "men"ini tan olish.
  - Shaxsiy identifikatsiya – bu shaxsning o'zini jamiyatdagi o'rni, kasbi, qiziqishi, e'tiqodi, jinsi, millati, hayotiy maqsadlari bilan bog'lab tushunishi.
2. **Mustaqillikka intilish.** O'quvchilar mustaqillikka intilishadi, bu esa ularning qaror qabul qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va tashabbus ko'rsatish kabi liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqillikni rivojlantirishda ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlarning qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega <sup>[16]</sup>.
  2. **Guruhdagi o'rinni aniqlash.** O'smirlar guruh ichidagi o'rinlarini aniqlashga intiladilar. Guruh a'zolari bilan o'zaro munosabatlar, liderlik rollari va ijtimoiy qabul qilish ular uchun muhimdir. Guruhdagi o'rinni aniqlash jarayoni o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ta'sir qiladi <sup>[2]</sup>.
  3. **Emotsional barqarorlik va liderlik.** O'smirlik davrida emotsional barqarorlik hali to'liq rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Bu esa stress, konflikt yoki noaniq vaziyatlarda hissiy reaksiyalarini boshqarishda qiyinchiliklarga olib keladi. Emotsional barqarorlikni rivojlantirish liderlik kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega <sup>[6]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Liderlik kompetensiyasining psixologik asosini tashkil etuvchi muhim elementlardan biri – motivatsiya. O'smirlik davrida (15–18 yosh) o'quvchilarni ichki motivatsiya bilan rag'batlantirish, maqsad qo'yish va unga erishish uchun tashabbus ko'rsatishga o'rgatish liderlik salohiyatini shakllantirishning markaziy qismi hisoblanadi.

1. **Maqsad qo'yish va unga intilish.** O'smirlar o'z faoliyatini maqsadga yo'naltirishga o'rganadilar. Maqsadlar aniq va real bo'lganda, ular tashabbus ko'rsatishga, qarorlar qabul qilishga va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga intiladi. Locke va Latham tadqiqotlariga ko'ra, maqsadlarni aniqlash va unga intilish motivatsiyani oshiradi hamda shaxsning muvaffaqiyatga erishish salohiyatini kuchaytiradi <sup>[8]</sup>.
2. **Tashabbus ko'rsatish.** O'quvchilar o'z tashabbusini ko'rsatishga o'rgatilganda, ular guruh faoliyatida faol ishtirok etadi, muammolarni hal qilishga intiladi va yangi g'oyalarni ilgari suradi. Ryan va Decining *Self-Determination Theory* (SDT) nazariyasiga ko'ra, ichki motivatsiya va tashabbus mustaqil faoliyatni rag'batlantiradi va shaxsning liderlik fazilatlarini mustahkamlaydi <sup>[13]</sup>.

IIV akademik litsey o'quvchilarida motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik yo'llarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'quvchilarga aniq va erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash;
- har bir tashabbus va faoliyatni rag'batlantirish hamda konstruktiv baholash;
- ichki motivatsiyani oshirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, debatlar, loyihaviy ishlar va amaliy vazifalarni qo'llash.

Shu tarzda, motivatsiya, maqsad qo'yish va tashabbus ko'rsatish komponentlari liderlik kompetensiyasining psixologik asosini tashkil etadi va o'smirlik yoshidagi litsey o'quvchilarining ijtimoiy hamda shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Liderlik salohiyatini shakllantirishda o'quvchining o'z-o'zini baholashi va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi (*self-confidence* va *self-efficacy*) muhim psixologik asos hisoblanadi. O'smirlik davrida (15–18 yosh) o'quvchilar o'z qobiliyatlarini aniqlash va o'zini ijobiy baholashga o'rganadilar. Bu o'z-o'ziga ishonch, tashabbus ko'rsatish va guruhdagi yetakchi rollarga intilish bilan chambarchas bog'liq.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Albert Banduraning *self-efficacy* (o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonch) nazariyasida shuni ta'kidlaydiki, shaxs o'z maqsadlariga erishish uchun o'z imkoniyatlariga ishonishi kerak. O'z-o'ziga bo'lgan ishonch kuchli bo'lsa, shaxs murakkab vaziyatlarda tashabbus ko'rsatadi va yetakchilik qobiliyatini namoyon etadi <sup>[1]</sup>.

O'quvchilarning ijobiy o'z-o'zini baholashi ularni qaror qabul qilish, mas'uliyatni olish va innovatsion g'oyalarni ilgari surishga undaydi. Bu jarayon lider sifatida shakllanishning muhim sharti hisoblanadi.

O'quvchilarning o'z-o'zini baholashni rivojlantirishning pedagogik yo'llarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'quvchilarga o'z yutuqlari va muvaffaqiyatlarini tahlil qilishga imkon berish;
- kichik maqsadlarni belgilash va ularni amalga oshirish orqali o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash;
- ijobiy feedback va konstruktiv baholash orqali o'z imkoniyatlarini ijobiy qabul qilishni rag'batlantirish;
- rolli o'yinlar, jamoaviy loyihalar va liderlik mashg'ulotlari orqali o'quvchining o'zini sinab ko'rish imkoniyatini yaratish <sup>[15]</sup>.

Shunday qilib, o'z-o'zini baholash va ishonch 15–18 yoshdagi litsey o'quvchilari liderlik salohiyatini rivojlantirishda asosiy psixologik komponent hisoblanadi. O'quvchi o'z imkoniyatlarini ijobiy qabul qilsa, u tashabbuskor, mas'uliyatli va jamoada yetakchi sifatida faol bo'lishga qodir bo'ladi.

O'smirlik davrida (15–18 yosh) o'quvchilarda emotsional barqarorlik hali to'liq shakllanmagan bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi o'quvchilar stress, konflikt va keskin vaziyatlarda o'z hissiy reaksiyalarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Emotsional barqarorlikning yetishmasligi liderlik salohiyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki samarali liderlik qaror qabul qilish, jamoani boshqarish va muammolarni hal qilish qobiliyatini talab qiladi.

Grossning tadqiqotlariga ko'ra, emotsional regulyatsiya – bu shaxsning hissiy javoblarni nazorat qilish va moslashtirish qobiliyati bo'lib, u stress va keskin vaziyatlarda samarali xatti-harakatlarni ta'minlaydi <sup>[6]</sup>.

O'quvchilarning hissiy barqarorligi kuchli bo'lsa, ular qiyin vaziyatlarda o'zini nazorat qila oladi va tashabbuskorlikni namoyon etadi, bu esa liderlik kompetensiyasini mustahkamlaydi.





O'smirlar guruh ichida kelib chiqadigan nizolar, qarama-qarshi fikrlar yoki muammoli vaziyatlarda emotsional barqaror bo'lishni o'rganishlari kerak. L. Mikolajczak <sup>[10]</sup>, J. Gross <sup>[6]</sup>larning tadqiqotlariga ko'ra, emotsional intellekt va regulatsiya ko'nikmalari shaxsning ijtimoiy munosabatlarida muvaffaqiyatli bo'lishi va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchilarda emotsional barqarorlikni hosil qilishga quyidagi pedagogik yondashuvlarni tavsiya etish mumkin:

- stressni boshqarish va hissiy regulatsiya mashg'ulotlarini joriy etish (relaksatsiya, nafas olish mashqlari, *mindfulness*);
- konfliktli vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali o'quvchilarga amaliy trening berish;
- ijobiy feedback va konstruktiv baholash orqali o'zini nazorat qilishga rag'batlantirish.

Shunday qilib, emotsional barqarorlik 15–18 yoshdagi IIV litsey o'quvchilari liderlik kompetensiyasining muhim psixologik komponenti bo'lib, stress, konflikt va keskin vaziyatlarda o'zini boshqarish qobiliyati orqali ularning tashabbuskorligi va qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Liderlik salohiyatini shakllantirishda kommunikativ ko'nikmalar muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarga samarali muloqot qilish, guruhni ishontrish va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. O'smirlik davrida (15–18 yosh) o'quvchilar guruh ichidagi o'z o'rnini aniqlashga, fikrini yetkazishga va boshqa a'zolar bilan hamkorlikka intiladi.

Samarali muloqot liderlik faoliyatining asosiy qismi bo'lib, o'quvchilar o'z fikrini aniq va tushunarli ifoda eta olishlari kerak. O. Hargiening tadqiqotlariga ko'ra, kommunikativ ko'nikmalar o'quvchilarning ijtimoiy o'zaro ta'sirini yaxshilaydi va jamoaviy qaror qabul qilish jarayonini samarali qiladi <sup>[7]</sup>.

Liderlikning muhim qismi – boshqalarni ishontrish va ularni maqsad sari yo'naltira olishdir. R. Yuklning fikricha, o'quvchilarda ijtimoiy ta'sir ko'rsatish qobiliyati kuchli bo'lsa, ular guruhdagi muhim qarorlar va loyihalarda samarali yetakchi bo'lishadi <sup>[19]</sup>.

O'quvchilarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri – ularda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish sanaladi va buning pedagogik yo'llari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- rolli o'yinlar, debatlar va jamoaviy muhokamalar orqali amaliy mashg'ulotlar tashkil etish;
- taqdimotlar va jamoaviy loyihalar orqali o'quvchilarning fikrini erkin ifoda etish imkonini yaratish;
- tinglash, savol berish va konstruktiv fikr almashish ko'nikmalarini o'rgatish.

Shunday qilib, kommunikativ ko'nikmalar o'quvchilarning liderlik kompetensiyasining muhim psixologik komponenti bo'lib, ular guruh bilan samarali ishlash, boshqalarni ishontrish va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish orqali o'z tashabbuskorligi va yetakchilik fazilatlarini mustahkamlaydi.

O'quvchilarning liderlik kompetensiyasini shakllantirishda ijtimoiy moslashuvchanlik (*social adaptability / flexibility*) muhim psixologik komponent sifatida qaraladi. Ijtimoiy moslashuvchanlik – bu o'quvchining guruhga moslasha olish qobiliyati, rollarni almashtira bilishi va turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali ishlay olishidir. O'smirlik davrida (15–18 yosh) o'quvchilar guruhdagi turli rollarni sinab ko'rishga, tengdoshlar bilan hamkorlik qilishga va jamoa dinamikasiga moslashishga intiladi. Bu ko'nikma liderlik kompetensiyasini shakllantirishda bevosita ahamiyatga ega.

IIV akademik litsey o'quvchilari orasida liderlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida, avvalo, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi va jamoada faoliyat yurita olish qobiliyatiga e'tibor qaratiladi. Liderlik nafaqat shaxsiy sifatlar majmui, balki ijtimoiy hamkorlik va o'zaro munosabatlar madaniyati orqali shakllanadigan murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, rossiyalik tadqiqotchi A.V. Zorina "liderlik"ni shaxsning jamoada muvaffaqiyatli faoliyatni yo'lga qo'ya olishi, ijobiy muhit yaratishi va umumiy maqsadlarga erishishga hissa qo'shishi bilan bog'liq jarayon <sup>[20]</sup> sifatida izohlaydi. Mazkur ta'rifdan kelib chiqib, IIV litseylari o'quvchilarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirish ularning tashabbuskorlik, hamkorlik, mas'uliyatni bo'lishish, qaror qabul qilish va ijtimoiy faoliyatda muvofiqlik kabi psixologik jihatlarni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'quvchilar turli jamoalarda faoliyat olib borishda boshqalar bilan hamkorlik qilish, fikr va qobiliyatlarni uyg'unlashtirishni o'rganadilar. Salovey va Mayer emotsional intellekt nazariyasida ijtimoiy moslashuvchanlikni hissiy va ijtimoiy qobiliyatlar bilan bog'laydi, u liderlik va samarali jamoaviy ishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi <sup>[14]</sup>.

N. Rashidova o'z tadqiqotlarida jamoaviy liderlik masalasiga alohida e'tibor qaratib, yoshlarni hayotga tayyorlash bevosita ularning jamoada liderlik sifatlarini egallashiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday sifatning shakllanishi professional ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, shaxsning mustaqil ravishda jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi <sup>[12]</sup>.

Amerikalik olim D. Myers jamoaviy liderlikni dominant shaxs tomonidan jamoani boshqarish jarayoni sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, bunday lider jamoa a'zolarini muayyan xulq-atvor uslubiga yo'naltiradi va ularning faoliyatiga ta'sir o'tkazadi <sup>[9]</sup>. Shunga o'xshash qarashni rus olimlari L.D. Stolyarenko va S.I. Samigina ham ilgari surib, jamoaviy liderlikni "shaxsning shaxsiy hokimiyati asosida jamoadagi boshqa a'zolarining xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatish orqali shakllanuvchi tabiiy ijtimoiy-psixologik jarayon" sifatida ta'riflaydilar <sup>[17]</sup>.

Liderlik jarayonida turli vaziyatlarda turli rollarni o'ynash qobiliyati muhim. O'quvchilar vaziyatga qarab yetakchi yoki ijrochi, maslahat beruvchi yoki qo'llab-quvvatlovchi rolni qabul qila olishlari kerak. Yukning fikricha, samarali liderlar o'z vaziyatlariga moslashib, guruhdagi rollarni fleksibil tarzda almashtira olish qobiliyatiga ega bo'lishadi <sup>[19]</sup>.

O'quvchilarda ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishning pedagogik yo'llari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- jamoaviy mashg'ulotlar va loyihalar orqali o'quvchilarga turli rollarni sinab ko'rish imkonini yaratish;
- guruh dinamikasini kuzatish va konstruktiv feedback berish orqali moslashuvchanlikni mustahkamlash;
- konfliktli vaziyatlarda turli strategiyalarni qo'llashni o'rgatish.

Shunday qilib, ijtimoiy moslashuvchanlik o'quvchilarning liderlik kompetensiyasining muhim psixologik komponenti bo'lib, guruhga moslasha olish va rollarni almashtira bilish orqali ular jamoaviy muhitda samarali yetakchi sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchilarning liderlik kompetensiyasini shakllantirishda litsey ichidagi psixologik iqlim (*school psychological climate*) muhim rol o'ynaydi. Bu muhit "o'qituvchi – o'quvchi" va "o'quvchi – o'quvchi" munosabatlarining sifatini, xavfsizlik, hurmat va qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Ijobiy psixologik muhit o'quvchilarda o'zini erkin ifoda etish, tashabbus ko'rsatish va jamoada faol yetakchi bo'lish istagini oshiradi.

1. **"O'qituvchi – o'quvchi" munosabatlari.** O'qituvchining pedagogik qo'llab-quvvatlashi, konstruktiv feedback berishi va o'quvchining tashabbuskorligini rag'batlantirishi motivatsiyani oshiradi. R.C. Pianta hamda B.K. Hamrelarning tadqiqotlariga ko'ra, ijobiy pedagogik munosabatlar o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga va yetakchilik fazilatlarini namoyon qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi <sup>[11]</sup>.
2. **"O'quvchi – o'quvchi" munosabatlari.** Guruhdagi do'stona va qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar o'quvchilarga o'z fikrini erkin ifoda etish, tashabbus ko'rsatish va boshqa a'zolar bilan samarali hamkorlik qilish imkonini beradi. K.R. Wentzel tadqiqotlariga ko'ra, tengdoshlar bilan ijobiy ijtimoiy munosabatlar o'quvchilarning o'z-o'zini baholashini oshiradi va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini rivojlantiradi <sup>[18]</sup>.

Bu holatda quyidagi pedagogik yondashuv tavsiya etiladi:

- ijobiy psixologik muhit yaratish uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ochiq va konstruktiv muloqot;
- guruh ichidagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikni rag'batlantirish;
- konfliktlarni hal qilish va hissiy intellekt ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar.

Shunday qilib, psixologik muhit IIV litsey o'quvchilari liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib, ijobiy pedagogik va tengdosh munosabatlari o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va yetakchilik fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Liderlik kompetensiyasini shakllantirishda o'quvchilarning guruh ichidagi o'zaro hamkorligi va sog'lom raqobati muhim psixologik komponent hisoblanadi. 15–18 yoshdagi o'smirlar guruh ishida bir-biri bilan raqobatlashish orqali motivatsiya oshadi, o'zini sinab ko'radi va yetakchilik fazilatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, hamkorlik qobiliyati jamoaviy maqsadlarni amalga oshirishda, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hamkorlik o'quvchilarga bir-birini qo'llab-quvvatlash, fikr almashish va jamoa maqsadlariga intilishni o'rgatadi. D.W. Johnson hamda R.T. Johnsonlarning qarashlaricha, ijobiy *interdependent learning* (o'zaro bog'liq o'rganish) shaxsning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'smirlar davrida (15–18 yosh) qiz va o'g'il bolalar o'rtasida psixologik va ijtimoiy rivojlanishning ayrim farqlari mavjud bo'lib, ular liderlik kompetensiyasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Ushbu farqlar asosan hissiy, kommunikativ va ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Qizlar odatda hissiy jihatdan sezgir, empatiya ko'rsatishga moyil va kommunikativ ko'nikmalari rivojlangan bo'ladi. Bu ularni guruh ichida hamkorlik va ijtimoiy ta'sir ko'rsatishda samarali qiladi.

O'g'il bolalar esa ko'proq mustaqil, qaror qabul qilish va raqobatga moyil bo'lishadi, bu esa ularni tashabbuskor yetakchi sifatida namoyon bo'lishiga yordam beradi.



Eagly hamda Carli-larning tadqiqotlariga ko'ra, jinsiy psixologik farqlar guruh ichidagi rol tanlash, kommunikatsiya uslubi va liderlik uslubini shakllantiradi.

Jamiyatda mavjud bo'lgan stereotiplar (masalan, "liderlik faqat o'g'il bolalarga xos") qizlarning tashabbuskorligini susaytirishi mumkin. Shu bilan birga, qizlar guruhdagi ijtimoiy hamkorlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga moyil bo'lishadi, bu esa hamkorlikka asoslangan yetakchilikni rivojlantiradi.

A.H. Eaglyning ta'kidlashicha, jinsiy farqlar va stereotiplar pedagogik yondashuv va treninglar orqali yumshatilishi hamda qiz va o'g'il bolalarning yetakchilik salohiyatini oshirish mumkin.

Qiz va o'g'il bolalar o'rtasidagi psixologik farqlar liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim omil hisoblanadi. Ularni hisobga olgan holda pedagogik va psixologik yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarning tashabbuskorligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va yetakchilik fazilatlarini samarali shakllantirish imkonini beradi.

O'quvchilarning liderlik kompetensiyasini shakllantirishda o'ziga ishonch (*self-confidence*) muhim psixologik komponent hisoblanadi. 15–18 yoshdagi o'smirlar o'z qobiliyatlarini baholashda noaniqlik, ichki shubha va qo'rquv bilan yuzlashishi mumkin, bu esa tashabbuskorlik va qaror qabul qilish jarayoniga to'sqinlik qiladi. Shu sababli motivatsion treninglar va psixologik mashg'ulotlar o'quvchilarda o'zini ijobiy baholash, o'z imkoniyatlariga ishonch va liderlik salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

#### Motivatsion treninglarning asosiy yo'nalishlari:

1. **Maqsad qo'yish va unga erishish:** o'quvchilar shaxsiy va jamoaviy maqsadlarni belgilashni o'rganadi, bu esa ichki motivatsiyani oshiradi.
2. **O'zini baholash mashqlari:** o'quvchilar o'z kuchli tomonlarini aniqlash, erishgan yutuqlarini qadrlash orqali o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi.
3. **Tashabbus ko'rsatish va qaror qabul qilish:** treninglar o'quvchilarga xavfsiz pedagogik muhitda turli vaziyatlarda tashabbus ko'rsatishni va qarorlar qabul qilishni sinab ko'rish imkonini beradi.

A. Bandura o'zining *"Self-efficacy: The Exercise of Control"* asarida ta'kidlaydiki, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi uning motivatsiyasiga, tashabbuskorligiga va samarali faoliyat ko'rsatishiga bevosita ta'sir qiladi <sup>[1]</sup>. D.H. Schunk hamda F. Pajareslar esa motivatsion treninglar va maqsadga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali o'quvchilarning o'z-o'zini baholashini va liderlik qobiliyatlarini oshirish mumkinligini qayd etadi.

Liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ ko'nikmalar (*communication skills*) ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'quvchilarga boshqalar bilan samarali muloqot qilish, o'z fikrini ishonch bilan ifoda etish, jamoani ishonitirish va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Shu sababli IIV akademik litseyda munozara, debat va rolli o'yinlar kabi mashg'ulotlar keng qo'llaniladi.

**Munozara (discussion).** Munozara o'quvchilarga o'z fikrini bayon etish, boshqa fikrlarni tinglash va konstruktiv tarzda bahslashish imkonini beradi. Bu mashg'ulotlar ijtimoiy ko'nikmalar, empatiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. L.S. Vygotskiyning fikricha, ijtimoiy muloqot orqali bilimlar va ko'nikmalar shakllanadi, shuningdek, o'quvchilarning yetakchilik qobiliyatlari rivojlanadi.

**Debat (debate).** Debat o'quvchilarni fikrlarni mantiqan tuzish, dalillar keltirish va qarshi tarafni hurmat bilan tinglashga o'rgatadi. Bu mashg'ulotlar tashabbus ko'rsatish, qaror qabul qilish va liderlik salohiyatini oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. D. Kuhnning ta'kidlashicha, debat faoliyatida qatnashgan o'quvchilar tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi <sup>[98]</sup>.

**Rolli o'yinlar (role-playing).** Rolli o'yinlar o'quvchilarga turli ijtimoiy vaziyatlarni amaliyotda sinab ko'rish imkonini beradi. Bu mashg'ulotlar shaxsiy empatiya, guruhda o'z o'rnini topish va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantiradi. D.W. Johnson hamda R.T. Johnsonlarning fikricha, rolli o'yinlar orqali o'quvchilar hamkorlik va yetakchilik qobiliyatlarini o'rganadi, shuningdek, o'z-o'zini baholash va ijtimoiy ishonchni oshiradi.

O'smirlik davrida (15–18 yosh) o'quvchilar emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikni shakllantirishda muhim psixologik ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Liderlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida stressli vaziyatlarni samarali boshqarish, hissiyotlarni nazorat qilish va ijtimoiy-munosabatlari xatti-harakatlarni amalga oshirish o'quvchilarning yetakchilik salohiyatini oshiradi.

Stressni boshqarish o'quvchining o'zini nazorat qilish qobiliyatini, qaror qabul qilish va tashabbus ko'rsatish qobiliyatini mustahkamlaydi. R.S. Lazarus hamda S. Folkmanlarning ta'kidicha, stressni boshqarish strategiyalari (masalan, muammoni hal qilish, hissiyotni boshqarish va moslashish) psixologik barqarorlikni oshiradi <sup>[18]</sup>. O'quvchilarga relaksatsiya mashqlari, nafas olish texnikalari va *mindfulness* amaliyotlari orqali stressni kamaytirish ko'nikmalari o'rgatiladi.



Emotsional intellekt – o'z va boshqalar hissiyotlarini aniqlash, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. El yuqori bo'lgan o'quvchilar jamoaviy ishda samarali bo'ladi, konfliktlarni hal qiladi va yetakchilik rolini muvaffaqiyatli bajaradi. D. Goleman emotsional intellekt yetakchilik va shaxsiy muvaffaqiyatni shakllantirishda intellektual qobiliyatlardan kam emasligini ta'kidlaydi [17]. J.D. Mayer, P. Salovey, D.R. Carusolar emotsional intellektni rivojlantirish orqali o'quvchilarning stressga chidamliligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va yetakchilik fazilatlarini oshirishni qayd etadi [14].

Liderlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, motivatsiyasi, ijtimoiy ko'nikmalari va yetakchilik salohiyatini aniqlash muhimdir. Shu maqsadda psixodiagnostik testlar keng qo'llaniladi. Ular o'quvchining individual psixologik profilini aniqlash, kuchli va zaif tomonlarini baholash va pedagogik yondashuvlarni moslashtirish imkonini beradi. Masalan:

- **Eysenck shaxsiylik testi (Eysenck Personality Questionnaire, EPQ).** Hans Eysenck shaxsiylikni uch asosiy o'lchov orqali baholaydi: ekstraversiya/introversiya, nevroitiklik va psixotiklik. Testning liderlik potentsialini aniqlashdagi ahamiyati: ekstraversiya va past nevroitiklik darajasi yuqori tashabbuskorlik va ijtimoiy faollik bilan bog'liq bo'lib, liderlik fazilatlarini rivojlantirishga mos keladi. H.J. Eysenckning ta'kidicha, shaxsning xulq-atvori va temperament xususiyatlari uning ijtimoiy ta'sir ko'rsatish va qaror qabul qilish qobiliyatini belgilaydi.
- **Belbin Team Role Inventory testi.** Meredith Belbin jamoa rollari nazariyasiga asoslangan test bo'lib, o'quvchining jamoa ichidagi samarali rolini aniqlashga yordam beradi. Test jamoaviy ishda liderlik, tashabbuskorlik va hamkorlik qobiliyatini ko'rsatadi. Masalan, "Coordinator" va "Shaper" rollari yetakchilik fazilatlarini bilan bog'liq. R.M. Belbinning ta'kidlashicha, jamoa rollarini aniqlash orqali o'quvchilarning kuchli tomonlarini rivojlantirish va liderlik salohiyatini oshirish mumkin.
- **Golemanning Emotsional Intellekt modeli.** Daniel Goleman emotsional intellekt (EI) yetakchilikning muhim omili sifatida ko'radi. EI testlari o'quvchilarning o'z hissiyotlarini boshqarish, boshqalarni tushunish va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini baholaydi. D. Golemanning fikricha, emotsional intellekt yuqori bo'lgan o'quvchilar jamoaviy ishda samarali va motivatsiyalangan yetakchi bo'lib yetishadi.

Mazkur testlarning pedagogik ahamiyati shundaki, ular o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, liderlik potentsialini va tashabbus ko'rsatish qobiliyatini aniqlashga yordam berib, pedagogik hamda psixologik yondashuvlarni individual xususiyatlarga moslashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, kuchli va zaif tomonlarni belgilash orqali maqsadli treninglar, guruh mashg'ulotlari va motivatsion mashqlarni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

IIV litsey o'quvchilarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirish psixologik nuqtai nazardan qaranganda, ularni qo'llab-quvvatlashning turli imkoniyatlari mavjud. Avvalo, shaxsiy o'sish va ijobiy o'zini anglash orqali o'quvchilarda o'ziga ishonch, tashabbuskorlik va ijobiy "Men" obrazi shakllanadi. Motivatsion treninglar va maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlar esa mas'uliyatni, qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, sog'lom raqobat va hamkorlik asosida olib borilgan jamoaviy faoliyatlar ijtimoiy moslashuvchanlik va hamkorlikni rivojlantiradi. Kommunikativ mashg'ulotlar – munozara, debat, rolli o'yinlar – o'quvchilarning nutq madaniyati, muloqotchanligi hamda jamoani boshqarish ko'nikmalarini oshiradi. Emotsional intellektni rivojlantirish va stressni boshqarish metodlari esa hissiy barqarorlikni ta'minlab, o'quvchilarda empatik liderlikni shakllantiradi. Nihoyat, psixodiagnostik testlar yordamida har bir o'quvchining yetakchilik potentsiali va mos liderlik uslubi aniqlanib, ularning shaxsiy rivojlanish yo'nalishlari belgilab olinadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, liderlikni psixologik qo'llab-quvvatlash nafaqat o'quvchilarda tashabbuskorlik, mas'uliyat va hamkorlikni rivojlantiradi, balki ularning shaxsiy o'sishini tezlashtiradi hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga mustahkam zamin yaratadi. O'quvchilarda liderlik kompetensiyasining shakllanishi, avvalo, ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ijobiy muhit yaratish va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali samarali amalga oshiriladi.

Psixologik yondashuvlar orqali o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, tashabbus ko'rsatish, qaror qabul qilish va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi jihatlarni rivojlantirish, ularni kelajakda jamiyatda faol, mas'uliyatli va raqobatbardosh yetakchilar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, emotsional intellekt, kommunikativ ko'nikmalar va stressni boshqarish uslublarini shakllantirish litsey o'quvchilarining liderlik fazilatlarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

### Takliflar:

1. IIV akademik litseylarida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun muntazam ravishda motivatsion treninglar, rolli o'yinlar va debat mashg'ulotlari tashkil etish.





2. O'quvchilar orasida sog'lom raqobatni rag'batlantirish va jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish maqsadida loyiha va tadbirlarni tizimli ravishda o'tkazish.
3. Litseyda ijobiy psixologik muhitni yaratish, "o'qituvchi – o'quvchi" va "o'quvchi – o'quvchi" munosabatlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratish.
4. O'quvchilarda emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikni shakllantirish uchun maxsus mashg'ulotlar (relaksatsiya, nafas olish texnikalari, mindfulness)ni joriy etish.
5. Liderlik kompetensiyasini baholash va rivojlantirishda psixodiagnostik testlardan (Eysenck, Belbin, Goleman modellari) muntazam foydalanish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: W. H. Freeman.
2. Brown, B. B. (2004). Adolescents' relationships with peers. In R. M. Lerner & L. Steinberg (Eds.), Handbook of adolescent psychology. Wiley.
3. Djamilova, N. (2019). Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Diss. Toshkent, 275 b.
4. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: Norton & Company.
5. Erikson, E. Identichnost: yunost i krizis: uchebnoye posobiye / pod red. A. V. Tolstix; per. s angl. A. D. Andreyeva i dr. – 2-ye izd. – Moskva: Flinta, 2006. – 341 s. – (Biblioteka zarubejnoj psixologii). ISBN 5-89349-860-7.
6. Gross, J. J. (2002). Emotion regulation: Affective, cognitive, and social consequences. Psychophysiology, 39(3), 281–291.
7. Hargie, O. (2011). Skilled interpersonal communication: Research, theory and practice. Routledge.
8. Locke, E. A., & Latham, G. P. (2002). Building a practically useful theory of goal setting and task motivation. American Psychologist, 57(9), 705–717.
9. Myers, D. G. (2002). Social psychology (7th ed.). Boston: McGraw-Hill.
10. Mikolajczak, M., Luminet, O., Leroy, C., & Roy, E. (2007). Influence of emotional intelligence on well-being. Emotion, 7(2), 411–424.
11. Pianta, R. C., & Hamre, B. K. (2009). Conceptualization, measurement, and improvement of classroom processes: Standardized observation can leverage capacity. Educational Researcher, 38(2), 109–119.
12. Rashidova, N. (2022). Professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarida jamoaviy-liderlik kompetentligining ahamiyati. Educational Research, 9(09). <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.032>
13. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68–78.
14. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 9(3), 185–211.
15. Schunk, D. H., & DiBenedetto, M. K. (2020). Motivation and social-emotional learning in adolescents. Contemporary Educational Psychology, 60, 101827.
16. Steinberg, L. (2014). Age of opportunity: Lessons from the new science of adolescence. Boston: Houghton Mifflin Harcourt.
17. Stolyarenko, L. D. (2003). Psixologiya. Rostov-na-Donu: Feniks.
18. Wentzel, K. R. (1998). Social relationships and motivation in middle school: The role of parents, teachers, and peers. Journal of Educational Psychology, 90(2), 202–209.
19. Yukl, G. (2010). Leadership in organizations (7th ed.). Pearson Education.
20. Zorina, A. V. (2009). Formirovaniye liderskix kachestv u studentov v vuze: rezultati eksperimenta.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.